12. *Javoblarning qaysi birida juft va takror so`zlarning yozilishi qoidaga mos emas?*

- A. Lak-luk, mash-masha, uzun-u qisqa, usti bosh.
- B. Bor-yo`q, bosh-oyoq, bog`-rog`, burda-surda.
- D. Basma-bas, ahd-paymon, achchiq-chuchuk, adi-badi.
- E. Avlod-ajdod, mayda-chuyda, peshma-pesh, yuvib-tarab.
- F. Oyda-yilda, yasan-tusan, sal-pal, el-yurt.

13. *Javoblarning qaysi birida taqlid so`zlarning yozilishi qoidaga mos emas?*

- A. Yalt-yult, shatir-shutur, tapir-tupur, g`arch-g`urch.
- B. Shar-shara, paq-paq, biz-bizak, pir-pirak.
- D. Qiy-chuv, qars-qurs, baka-bang, viz-viz.
- E. Jaz-buz, kars-kurs, taraqa-turuq, chag`ir-chug`ur.
- F. Patir-putur, tars-turs, chars-churs, g`uv-g`uv.

14. *Javoblarning qaysi birida his-hayajon, undov so`zlarining yozilishi qoidaga mos tushmaydi?*

- A. Oh-oh, bay-bay-bay, obbo, eh-he.
- B. Evoh, yashasin, uf, eh.
- D. Dodvoy, duv-duv; oh, oh, oh, eyha.
- E. Voh-voh. ura, oh, uh.
- F. O, ey, voy, iye.

15. *Javoblarning qaysi birida yuklamalarning imlosi noto`g`ri?*

- A. Deydi-ya, to`g`ri-a, xotiralar-chi, shundaymi.

- B. O`quvchilargina, bilasizmi, ketadi-ku.
- D. Undaymas-da, yoritsa-yu, bugunoq.
- E. Bordimku, yozibdi-ki, kecha-yu kunduz, qo`y-e.
- F. Ertagayoq; aytsin-chi; na yerda, na suvda.

16. Qaysi qatordagi sonlarning yozilishida chiziqcha (defis) to`g`ri qo`yilmagan?

- A. 148-masala, 1-sinf, IV bob.
- B. 34-uy, 38-xonodon, 165-mashq.
- D. 9-may, 27-aprel, 80-yillar.
- E. 3-qavat, VI sinf, 124-son buyruq.
- F. XX-asr, 7 sinf, 169-chi maktab.

17. Gaplarning qaysi birida kirish so`z vergul bilan noto`g`ri ajratilgan?

- A. Xullas, mansabdan tushsangiz ham, xalqning nazaridan tushmabsiz.
- B. Zero, o`z elining ramzi bo`lib qolish faqat buyuk odamlargagina nasib etadi.
- D. Ha, haqiqatdan ham ular zamonamizning ajoyib insonlaridir.
- E. Menda, ayniqsa, Navoiy, Fuzuliy kabi mumtoz shoirlarning ijodlari katta taassurot qoldiradi.
- F. Demak, to`g`rilik, halollik insonni kamolot sari yetaklaydi.

12. Qaysi gapda kirish so`z noto`g`ri ajratilgan?

- A. Darhaqiqat, so`z - insoniyat uchun bebaho xazina.
- B. Musavvir ayniqsa 1980-yilgi asarlaridan e'tiboran, “ranglar jilosi”ni qo`liga ololgan.
- D. Umuman aytganda, bu joy orombaxsh, xushhavo bir manzil ekan.
- E. Shunday qilib, Berta Davidova “Munojot”ning birinchi ijrochisi bo`lib qoldilar.
- F. U yoki bu xonandaning xalqqa tanilishida mazkur qo`shiqning xizmati bor, albatta.

13. Qaysi gapda kirish so`z noto`g`ri ajratilgan?

- A. Buning asosiy sababi, avvalo, g`azalning benazirligida.
- B. Ikkinchidan, g`azalga bastalangan kuy xalqning armoni va dardini ifodalaydi.

D. Shayxzoda ozar va o`zbek tillarini qanchalik yaxshi bilsa, forsiyda shuningdek rus tilida, shunchalik yaxshi gaplashgan.

E. Qisqasi, Navoiyning ijodini o`rganish bo`yicha ko`p ish qilinmoqda.

F. G`afur aka fikrini isbotlab, qanoat hosil qildi, shekilli.

14. *Qaysi gapda undalma gapning boshqa bo`laklaridan noto`g`ri ajratilgan?*

A. Shoshma, do`stim!

B. Nima qilib turibsan, bolam?!

D. XX asr onalari, bu savolga javob bering!

E. Ming rahmat, aziz do`stim! bu xushxabar menga kuch-quvvat baxsh etadi.

F. Mulla aka, she'ringiz menga yoqib qoldi.

15. *Qaysi gapda undalmani gapning boshqa bo`laklaridan ajratishda ishoraviy belgi noto`g`ri tanlangan?*

A. Shokirjon, siz qayerda o`qiyapsiz?

B. Yuring, o`rtoq Odilov. Ketdik. (A.Q.)

D. Zokirjon sizmisiz? Qachon sayohatdan qaytdingiz?

E. Allo, Farida! Salom!

F. Salom! Hoshimjon! Qachon kelding?

16. *Qaysi gapda ajratilgan va boshqa bo`laklarida ishoraviy belgi noto`g`ri qo`yilgan?*

A. Bundan ellik sakkiz yil muqaddam, 1947-yilda, Alisher Navoiy haqidagi film ekranlarga chiqdi.

B. G`alaba bayrami arafasida men bu kishini, Sodiq akani, uchratib qoldim.

D. Navoiyning sevgi va sadoqatni ulug`lovchi, insoniy fazilatlarni ardoqlovchi fikrlari biz, hozirgi avlod uchun, g`oyat qimmatlidir.

E. Boyagi yigitning, Avazning, qo`li gul ekan (P.Q.)

F. Biz, yosh avlod, mangulikka daxldor shoir Usmon Nosir xotirasini hamisha e'zozlaymiz.

17. *Qaysi gapda ajratilgan ikkinchi darajali bo`laklar va gapning boshqa bo`laklari orasida ishoraviy belgi noto`g`ri qo`yilgan?*

A. Uning Xolbek degan do`sti - chekkasida danakday xoli bor bola - bir kun Avazni bopladi. (P.Q.)

B. Soyda, yong`oq tagida, bolalar to`plandilar.

- D. Bugun, soat beshda, majlis bo`ladi.
- E. Tepada, daraxtning uchrog`ida, ukki shoxga qo`nib o`tiribdi.
- F. Qishloqdan bir qir narida - behisob qizg`aldoqlar dalani qizartirib turgan joyda, Hulkar o`t o`rardi (P.Q.)

18. *Qaysi qatorda bog`lovchisiz qo`shma gaplardagi gaplar orasida ishoraviy belgi noto`g`ri tanlangan?*

- A. Sharbatga to`lgan uzum boshlari atrofida ari g`uvillaydi, bog`da qushlar chug`urlashadi.
- B. Oradan yillar o`tdi, folklor ansamblari ko`paydi.
- D. Hademay, bahor ham tugadi, yozning issiq kunlari boshlandi.
- E. Shamol qo`zg`algan, o`rikning qizg`ish barglari chang-to`zonda suzib yurardi.
- F. Gaping to`g`ri, men ancha keksayib qoldim.

19. *Qaysi qatorda bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida ishoraviy belgi noto`g`ri qo`yilgan?*

- A. Xushmuomalalik barchaning ko`nglini ko`taradi: vaqtini xush, dimog`ini chog` qiladi.
- B. Shirinsuxanlikda karomat katta - u mo`jizalar yaratish qudratiga ega.
- D. Navoiy faqat buyuk shoir emas, u ayni vaqtda bilimdon olim ham bo`lgan.

20. *Maqollarning qaysi birida ishoraviy belgi noto`g`ri tanlangan?*

- A. Arslonning o`ligi, sichqonning tirigi.
- B. Yoz yopinchig`ingni qo`yma, qish o`zing bilasan.
- D. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo.
- E. Aytilgan so`z - otilgan o`q.
- F. Tikansiz gul bo`lmas, mashaqqatsiz hunar.

21. *Maqollarning qaysi birida ishoraviy belgi ortiqcha qo`yilgan?*

- A. O`rganish oson, o`rgatish qiyin.
- B. O`ylamay qilingan ish, boshga keltirar tashvish.
- D. Suluv suluv emas, sevgan suluv.
- E. Bola aziz, odobi undan aziz.
- F. Husniga emas, hunariga boq.

22. *Maqollarning qaysi birida ishoraviy belgi yetishmayapti?*

- A. Aqli o`zini ayblar, aqlsiz - do`stini.

- B. Ish vaqtida ayyor -osh vaqtida tayyor.
- D. Kimki bo`lsa dilozor, undan elu yurt bezor.
- E. It cho`ponning qo`ldoshi, yolg`izlikda yo`ldoshi.
- F. Yoshdan xato, kattadan uzr.

23. *Qaysi qatordagi ko`chirma gapda ishoraviy belgilar to`g`ri qo`yilmagan?*

- A. O, bolam - dedi kampir-jiyanim ishga yaramaydi. (A.Q.).
- B. - Voy, Xayriniso opa, kelin qildingizmi? - dedi Tojixon. (A.Q.)
- D. Tavba-yey, bu Omon balo ekan-a, - deb Basti kului. (P.Q.)
- E. Kampir yerga qaradi va sekin: “Abdumajidlar keldi”, - dedi.
- F. - Ana xolos, - dedi Ortiqjon, - to`lmas ekan-da! (A.Q.)

24. *Qaysi qatordagi ko`chirma gapda ishoraviy belgilar noto`g`ri qo`yilgan?*

- A. Muhammarrir so`radi: “Xo`rozning qichqirganini eshitganmisiz?” (A.Q.)
- B. - Hoy, bolam, dedi kampir, tush bu yoqqa! (A.Q.)
- D. - G`aniyev, - dedi shoir, - bog`chani ko`ring! (A.Q.)
- E. Hadyaxon: “Imtihonlarni topshirib bo`ldim”, - dedi.
- F. - Xo`sh, shundan keyin nima bo`ldi? - dedi Asqar ota. (A.Q.)

25. *Qaysi qatordagi ko`chirma gapda ishoraviy belgilar noto`g`ri qo`yilgan?*

- A. Uzoq jimlikdan so`ng Roziya: “Men ketaman”, dedi. (P.Q.)
- B. “Qani tez bo`l, darsga kech qolasan!” - dedilar oyim. (S.A.)
- V. Rais miyig`ida kulib dedi: “Mayli” (A.Q.)
- G. Xosiyat xola: “Voy bolam keldi”. - deb o`g`liga tomon yurdi. (P.Q.)
- D. “Zap kelibsanda, oshna, - dedi Abdurakim, - o`zgarmabsan”. (S.A.)

26. *Qaysi qatordagi ko`chirma gapda ishoraviy belgilar noto`g`ri qo`yilgan?*

- A. Otaboy unga qaradi: “Singlim, menda ishingiz bormi?” (S.A.)
- B. Kampir birdan insofga keldi: “O`zimni o`zim qiynab yurgan ekanman”. (S.A.)
- D. Do`kon mudiri so`radi: “Xizmat? Tekshirgani keldinglarmi?” (S.A.)
- E. -Nega kelding- dedi Bashorat. Tushuntirgani keldingmi? (S.A.)
- F. Beknazarov unga arizasini uzatdi: “Oling, yirtib tashlang!” (P.Q.)

27. *Qaysi qatordagi ko`chirma gapda ishoraviy belgilar noto`g`ri?*

A.— Ko`nasizmi, yo`qmi? — dedi Inobat gapnisovutmay. (S.A.)

B. Xosiyat xola: “Oshni men damlay”, - dedi. (P.Q.)

D. Bola yana dedi: “Darsimni tamom qildim, endi ayting”. (S.A.)

E. “Dadang bilan ko`rish”, - dedi buvisi kulib. (P.Q.)

F. Inobat sekin ovozda: O`tiring! - dedi. (S.A.)

28. *Ko`chirma gaplarning qaysi birida ishoraviy belgilar yetishmaydi?*

A. Azlar aka jo`mraklarni burab“Iye, issiq suvi borku!” - dedi - issig`i qayerdan keladi. (P.Q.)

B. - Qoyil! - deb Azlar aka kitoblardan uchta-to`rttasini olib ko`rdi. (P.Q.)

D. Muharrir boshini ko`tarmay gapira ketdi: “O`n to`rtinchida qayerda edingiz?” (S.A.)

E. Yolqin akam menga: “Markaziy shiyponga hayda”, - dedi.(P.Q.)

F. - To`g`ri, - dedi direktor jiddiyashib, - bari to`g`ri. (S.A.)

Javoblar “kalit”i

1. **Qiyin so`zlar imlosi**

1. F. Hokazo, tomosha, qovun, orqa.
2. E. Mavsum, avlod, javob, tamom.
3. E. *Berilgan noto`g`ri so`zlarning to`g`ri shakli: baho, kalta, kosmodrom, muammo, navbat, navkar, namoyish, namoyon, nog`ora, ovoz, ozgina, mabodo, bahodir, xushchaqchaq, inshoot, topag`on.*
4. E. Dushman, kuylamoq, ko`zmunchoq, tuzum.
5. F. To`y, o`sha, o`yla, qo`shog`iz.
6. B. Yanchmoq, qayrilish, yangi, yechim.
7. E. Yaqqol, namoyanda, ma’naviyat, hayajon.
8. A. Yolg`on, yalqov, ayoz, piyoda.
9. E. Yo`nalish, xayolot, to`yona, rivoj.
10. D. Yangiyo`l, yo`lakay, yo`lbars, yo`rg`alash.
11. A. Tayoq, yaroq, tabiat, xiyobon.
12. F. Maishiy, suyunmoq, doira, suiiste’mol.
13. E. Yolchimoq, yiring, yostiq, yasharmoq.
14. E. Doniyor, kuyunchak, Surayyo, baxtiyor.
15. B. Fe’l, she’r, mas’ul, iste’mol.
16. F. Mas’ud, daf’atan, san’at, ta’qib.
17. F. Ma’sum, nash’a, sun’iy, e’zozli.
18. D. *Singari, kengay, ingichka, unaqangi.*
19. D. Mustaqil, vishillamoq, avvalo, qat’iy.
20. D. Takabbur, muttaham, muttasil, mutafakkir.
21. E. Tasalli, muvaffaqiyat, uddaburon, muttasil.

2. **X va H harflari imlosi**

1-E; 2-B; 3-A; 4-F; 5-B; 6-E; 7-D; 8-D; 9-E; 10-E; 1 **1-B**; 12-D; **13-B**; 14-A; 15-B; 16-D; 17-D; 18-E; 19-D; 20-E; 21-E; 22-A; 23-A; 24-D; 25-B; 26-A; 27-B; 28-F; 29-D; 30-D; 31-B; 32-D; 33-E; 34-B; 35-D; **36-D**; 37-D; 38-B; 39-A; 40-B; 41-D; 42-E; 43-F; 44-A; 45-B; 46-D; 47-E; 48-F.

3. So`zlarni bo`g`inga ajratish va bo`g`inlab ko`chirish

I-A: 2-F; 3-D; 4-E; 5-F; 6-A: 7-B; 8-D; 9-D; 10-D

4. Bosh harflar imlosi

I-A; 2-E; 3-D; 4-E; 5-F; 6-A; 7-B; 8-D; 9-E.

5. O`zak va qo`shimchalar imlosi

1-F; 2-A; 3-B; 4-D; 5-E; 6-F; 7-A; 8-B; 9-D; 10-E; H-F; 12-A; 13-B;
14-D; 15-E; 16-F; 17-A; 18-B; 19-D; 20-F; 21-E.

6. Qo`shma, qisqartma va juft so`zlar imlosi

- 1.A. Choydish, makkajo`xori, ish yoqmas, ertapishar.
- 2.B. Lola rang, dov yurak, marvaridgul, och sariq.
- 3..D. Pushti rang, tez pishar, chalasavod, kamgap.
- 4.E. Oqurug`, so`z boshi, hamma vaqt, paxta olma.
- 5.F. Yer yong`oq, ba`zi bir, vaqtichog`lik, oq o`rik.
- 6.A. Qattiqko`l, qo`y ko`z, tillaqo`ng`iz, tosh yurak
- 7.B. Issiqko`l, Ellikqal'a, Eskiqovunchi, Sariosiyo.
- 8.B. ToshDPU, ToshDTU, zoobog`.
- 9.D. Aqlu hush, do`sti nodon, zeb-ziynat, dori-darmon.
- 10.E. Kayfu safo, aylanib-u o`rgilib, aks-sado, duoyi salom.

1. Qiz uni ushlab olgani urindi// juda qiynalib ketdi// qo`llariga tikan kirdi// yuzi va bilaklari tirmalandi.

Belgilar o`rniga qanday tinish belgilari qo`yiladi?

- A) chiziqcha, vergul, vergul
- B) ikki nuqta, vergul, vergul
- C) ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul
- D) vergul, ikki nuqta, vergul

2. Qaysi gapda tire noto`g`ri qo`yilgan?

- A) Men - sakkizinchি sinf o`quvchilaridan biriman.**
- B) Hosilning otasi - suv, onasi - yer.
- C) Yulduz - a'lochilarimizdan.
- D) Bu - siz uchun katta sinov.

3. Qaysi gapda uchta o`rinda vergul qo`yilishi lozim?

- A) Yo`q, bo`lmaydi mashinada rejadagi paxtani terib olsak ham katta gap.
- B) Xosh mulla Mamasodiq soglik qalay tahsil nechuk?**
- C) Kun sanayapsizmi Jo`ra dedi Abduraxmon.
- D) Yo`q, yo`q, men boshqa narsa demoqchi edim.

4. Qaysi gapda tinish belgisi noto`g`ri qo`llangan?

- A) Bora-bora ularning ham ko`zi ochiladi, past-balandni ajratib olishadi.
- B) Maqtanchoq bo`lmang - xijolat tortmaysiz.
- C) Urilmoq ham foyda - pishiq bo`lasiz, tajriba hosil qilasiz.**
- D) Kimki mehnatning zo`rini qidiribdi - odamning sarasi ana shu.

5. Ajratilgan bo`lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, undan oldin qanday tinish belgisi qo`yiladi?

- A) tire
- B) vergul
- C) nuqtali vergul
- D) ikki nuqta

6. Vatanimiz — kelgusida buyuk davlat bo`ladi.

Nima uchun egadan so`ng tire qo`yilgan?

- A) ega va kesim ot so`z turkumi bilan ifodalangani uchun
- B) ega mantiqiy urg`u olgani uchun**

- C) ega tarkibida egalik qo`shimchasi bo`lgani uchun
 D) gapning kesimi murakkab ot-kesim bo`lgani uchun.

7. U oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo`shni o`g`il-qizlarni ham, ko`cha-ko`ydagi begona bolalarni *ham* xullas barchani sizlab gapirardi. Ushbu gapda umumlashtiruvchi so`zdan oldin qanday tinish belgisi qo`yilishi kerak?

- A) *tire* B) *ikki nuqta* C) *vergul*
 D) *hech qanday tinish belgisi qo`yilmaydi.*

8. Vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari qo`shma gapning qaysi turida qo`llanishi mumkin?

- A) *Bog` lovchisiz qo`shma gaplarda*
 B) *ergashgan qo`shma gaplarda*
 C) *Bog`langan qo`shma gaplarda*
 D) berilgan qo`shma gaplarning barchasida.

9. Qo`shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalanganda, ular orasiga tire qo`yilmaydi?

- A) *O`xshatish munosabati*
 B) *zidlash munosabati* C) *shart munosabati* D) *izohlash munosabati*

10. Bizning qarorimiz shu majlisda hammamiz so`zga chiqamiz.

Ushbu qo`shma gap qismlari orasiga qaysi tinish belgisini qo`yish kerak?

- A) *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta* D) *nuqtali vergul*

11. Xadicha xola bolalik chog`idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o`pdi, duo qildi // irim qilib o`zi kuzatgani chiqmadi.

Ushbu qo`shma gapda // belgisi o`rnida qanday tinish belgisi qo`yiladi?

- A) *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta* D) *nuqtali vergul*

12. Borliq jim har bitta darchada zangori shu'lalar porlaydi.

Mazkur qo`shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo`yiladi?

- A) *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta* D) *nuqtali vergul*

13. Quyidagi gaplarning qaysi birida vergul ishlataladi?

- A) *Bizga shu narsa aniq mehnat insonni ulug`laydi.*
- B) *O`zi yuzsiz so`zi tuzsiz.*
- C) Pazandasini yopadi shirmon Qarilari kutadi mehmon.**
- D) *Shinel jiqla ho'l Bektemirning yuzidan tomchilar qo`yilar edi.*

14. Saodatxon darchani ochib yubordi uyga muzday kuz havosi kirdi.

Ushbu qo'shma gap qismlari orasida qanday tinish belgisi ishlataladi?

- A) *vergul*
- B) *tire*
- C) *ikki nuqta*
- D) *nuqtali vergul*

15. Ahmad va sen — ikkovingiz ertaga vaqtli kelingiz.

Ushbu gapda nima uchun tire qo'yilgan?

- A) *Qo'shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalangani uchun*
- B) *Qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish munosabati ifodalangani uchun*
- C) uyushiq bo'laklardan so'ng umumlashtiruvchi so'z kelganligi
uchun**
- D) *qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun*

16. El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat.

Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) *vergul*
- B) *tire*
- C) *ikki nuqta*
- D) *nuqtali vergul*

17. Qaysi gapda qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga tinish belgisi noto'g'ri qo'yilgan?

- A) *Shu fe'llari yaxshi: hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.*
- B) *Qirq to'rt so'mdan yigirma yetti so'mni olib tashlasak — o'n yetti so'm qoldi.*
- C) Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi: past-balandni ajratib olishadi.**
- D) *Yoz oxirida Samarqandda kechalari salqin, kunduzlari issiq bo'ladi: kechalari shabada tog'dan salqin va rohatbaxsh havo keltiradi.*

18. Saida bunga juda suyundi demak, hisobot yuzasidan bo'ladigan muzokara qizg'in tus oladi.

Ushbu qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) *vergul*
- B) *tire*
- C) ikki nuqta**
- D) *nuqtali vergul*

19. Qiz avval qo'rqli uning Sidiqjon bilan so'zlashib turganini emas bog'ga tushganini bilsa ham terisiga somon tiqadi bu xususida otasining qamchisidan qon tomar edi keyin yangi olamga kirib otasining qamchisini ham jingul ostida pisib yotgan kurka tovuqni ham unutdi

Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) *vergul, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta*
- B) vergul, vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta**
- C) *vergul, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, vergul, nuqta*
- D) *vergul, vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, nuqta*

20. Qo'shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo'limgan voqealarni bildirsa, ular orasida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) *tire* B) *ikki nuqta* C) *nuqtali vergul* D) *vergul*

21. G'animlar duch kelar // jang bo'lar puxta.

Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) *vergul* B) *tire* C) *ikki nuqta* D) *nuqtali vergul*

22. Qaysi qatordagi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ikki nuqta qo'yiladi?

- A) *Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi // yiqitadi kishini.*
- B) *To'rt mashina o'g'it yubordik // fermerlarga vaqtida taqsimlansin.*
- C) *Yuragida qanday dard bor // mana bu menga sir.*
- D) Mening bir jaydari falsafamdir shu // hargiz iltimosga kuning qolmasin.**

23. Birov sening aybingni yuzingga aytsa so'zini qaytarma chunki u sening uchun ko'zgudir ko'zgu xira bo'lib qolsa boshqa aybingni ko'rsatadimi

Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) *vergul, vergul, ikki nuqta, vergul, so'roq belgisi*
- B) *vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, so'roq va undov belgilari*
- C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so'roq belgisi**
- D) *vergul, vergul, nuqtali vergul, tire, so'roq belgisi*

24. Quyidagi gapda qo'llash lozim bo'lgan vergullar miqdori nechta?

She'r shuning uchun muqaddaski uning bir vazni ilohiy bir vazni insoniydir uning bir satri osmoniy bir satri zaminiydir. (A.Oripov)

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta

25. Yaxshi xislatlari bor oppoq soqoli bilan farzandlarini ham nevaralarini ham qo'shni ko'chadagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) *ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, nuqta*
 B) *tire, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta*
 C) *ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, vergul, vergul, nuqta*
 D) **ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta**

26. Quyidagi hukmlarning qaysi biri to'g'ri?

- A) *Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi, muallifi qavs ichida yoziladi.*
 B) **Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.**
 C) *Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yozilmaydi.*
 D) *Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng nuqta, so'roq yoki undov belgilaridan biri qo'yiladi, muallifi qavs ichida yozilib, qavsdan keyin nuqta qo'yiladi.*

27. Yosh do'stim o'qituvchi ham xuddi onadek mehribon ulug' otadek bog'bon mehnatkash ularni hurmat qil

Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) *vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, undov belgisi*
 B) *vergul, vergul, tire, vergul, tire, undov belgisi*
 C) **vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi**
 D) *vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi*

28. U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi yeng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanligini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish.

Berilgan gapdagisi vergullarning qo'yilishini quyidagi qaysi qoidalar bilan izohlash mumkin?

- A) *uyushiq bo'laklar ohang orqali bog'lansa, ular orasiga vergul qo'yiladi*
- B) aniqlov bog'lovchisidan oldin doimo vergul qo'yiladi; uyushiq bo'laklar sanash ohangi orqali bog'langanda ular orasiga vergul qo'yiladi**
- C) *ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan vergul bilan ajratiladi; zidlash munosabati ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasiga vergul qo'yiladi*
- D) *ya'ni bog'lovchisi aniqlov bog'lovchisi sanaladi; inson va qurbaqa so'zлari uyushiq bo'lak hisoblanadi*

29. Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin

Ne baxt Ra'no xaridoring talab ahlining Mirzosi. (A.Qodiriy)

Mazkur baytda qaysi so'zlardan keyin vergul qo'yilishi kerak?

- A) jununidin, baxt, Ra'no**
- B) *or etsa, jununidin, Ra'no, baxt*
- C) *Layli, jununidin, baxt, Ra'no*
- D) *haqlidir, jununidin, baxt, Ra'no*

30. Lekin me'morning avvalo raiyat qolaversa sultanat oldidagi mavqeい Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'yimas edi.
(Mirmuhsin)

Berilgan gapda qo'yiladigan vergullar nima bilan bog'liq?

- A) *modal so'z, kiritma*
- B) kiritma, uyushiq bo'lak**
- C) *kiritma, ajratilgan bo'lak*
- D) *kiritma, qo'shma gap*

31. Quyida berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga qo'yilishi lozim bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Yuragida qanday dard bor mana bu menga sir.
2. Mening bir jaydari falsafam shu hargiz iltimosga kuning qolmasin.
3. To'rt mashina o'g'it yubordik fermerlarga vaqtida to'g'ri taqsimlansin.

- A) *ikki nuqta, tire, ikki nuqta*
- B) *vergul, ikki nuqta, tire*
- C) *tire, ikki nuqta, vergul*
- D) tire, ikki nuqta, tire**

32. Quyidagi gapda qaysi so'zlardan keyin vergul qo'yilishi kerak?

Yo'q faqat meni bilishmaydi lekin boshqalarni jumladan seni ham yaxshi bilishadi.

- A) yo'q, bilishmaydi, lekin, ham
- B) yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan
- C) yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan, ham**
- D) yo'q, meni, bilishmaydi, jumladan

33. Quyidagi gaplarning qaysisida tinish belgilari to'g'ri qo'yilmagan?

- A) Nega yig'ladi? A? Yig'lanmasin!
- B) O'n yil! O'n yildan beri kasal ekanmi!?**
- C) Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi.
- D) Assalomu alaykum, hormang, ota!

34. Qaysi bog'lovchilardan oldin yozuvda vergul qo'yiladi?

- A) biroq, chunki, agar, gar, toki, goh ... goh
- B) lekin, ya'ni, balki, chunki, negaki, takror qo'llanuvchi ayiruvchi bog'lovchilar**
- C) ammo, lekin, agar, gar, takror qo'llanuvchi ayiruvchi bog'lovchilar
- D) ammo, lekin, biroq, agar, gar, toki, basharti

35. Qaysi gapda tinish belgilari bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

- A) - Yoz, - deydi, - azizam, ma, qalam, daftar!
- B) Balki kutar meni bir qiz, ko'zyoshlari oqizoq.**
- C) Mevani gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san'atdir.
- D) Ishqilib, ilmli, yo hunarli bo'lismayda bo'linglar.

36. Yuragida qanday dard bor// mana bu menga sir. Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul **B) tire C) nuqtali vergul D) ikki nuqta**

37. Kampirning jig'ibiyroni chiqdi// ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib// vaysaganicha// uyiga kirib ketdi.

Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

- A) ikki nuqta, tire, vergul

- B) *tire, vergul, vergul*
 C) *ikki nuqta, vergul, vergul*
D) nuqtali vergul, vergul, vergul

38. Quyidagi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi? Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.

- A) *vergul* **B) nuqtali vergul** C) *tire* D) *ikki nuqta*

39. Istiqlol davri bolalari g'ayratli (1) shijoatli (2) ko'zida chaqini (3) ko'ksida yolqini bor. Ushbu gapda qaysi raqamlar o'nida vergul qo'yiladi?

- A) 1, 2, 3 **B) 1, 3** C) 2, 3 D) 1, 2

40. Ish kuchini yelga berma yerga ber jamg'armani selga berma elga ber. Ushbu gapda qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari nomi va tartibi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) *vergul, vergul, undov*
 B) *vergul, vergul, vergul, undov*
 C) *tire, vergul, tire, undov*
D) vergul, nuqtali vergul, vergul, undov.

41. Birov sening aybingni yuzingga aytsa so'zini qaytarma chunki u sening uchun ko'zgudir ko'zgu xira bo'lib qolsa boshqa aybingni ko'rsatadimi
 Ushbu gapda ishlatilishi zarur bo'lgan tinish belgilaring nomi va tartibi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) *vergul, vergul, vergul, vergul, so'roq belgisi*
 B) *vergul, nuqtali vergul, vergul, vergul, so'roq belgisi*
C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so'roq belgisi
 D) *vergul, vergul, ikki nuqta, vergul, so'roq belgisi*

42. Berilgan gapda qaysi o'rnlarda vergul qo'yiladi?

Lekin (1) me'morning (2) avvalo (3) raiyat (4) qolaversa (5) sultanat oldidagi mavqeyi (6) Xuroson-u (7) Movarounnahrdagi shuhrati (8) unga qarshi keskin chora ko'rishga (9) yo'l qo'ymas edi. (Mirmuhsin)

- A) 1, 2, 4, 6, 8, 9 B) 4, 6, 8 **C) 2, 3, 4, 5, 6** D) 2, 3, 6, 8

43. Yozuvda qaysi bog'lovchilardan oldin doim vergul qo'yiladi?

1) sabab bog'lovchilari; 2) aniqlov bog'lovchilari; 3) shart bog'lovchilari; 4) biriktiruv bog'lovchilari; 5) zidlov bog'lovchilari

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5 **C) 1, 2, 5** D) 2, 3, 5

44. Istiqlol davri bolalari g'ayratli shijoatli ko'zida chaqini ko'ksida yolqini bor.

Ushbu gapda shijoatli so'zidan so'ng qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

A) *vergul* B) *tire* C) *nuqtali vergul* D) *tinish belgisi qo'yilmaydi*

45. Quyidagi gaplarning qaysi birida ikki nuqta qo'yiladi?

A) Saida bunga juda suyundi demak hisob yuzasidan bo'ladigan muzokara qizg'in tus oladi.

B) *Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi past-balandni ajratib olishadi.*

C) *Kimki mehnatning zo'rini qidiribdi odamning sarasi ana shu.*

D) *El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat.*

46. Qaysi gapda qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga tire qo'yiladi?

A) *El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat.*

B) *Urilmox ham foyda pishiq bo'lasiz tajriba hosil qilasiz.*

C) *Shu fe'llari yaxshi hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar.*

D) Maqtanchoq bo'lmaning xijolat tortmaysiz.

47. Fe'l // atvorning o'zgarmas darajada qat'iyligi // ayol tabiatiga yotdir //

Ushbu gapda // belgisi o'rnila qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari tartibi va ularning nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) *chiziqcha, tire, nuqta*

B) *chiziqcha, ikki nuqta, nuqta*

C) *chiziqcha, vergul, nuqta*

D) tire, nuqta

48. Vaqt xuftondan o'tgan; juvozxonada chirog' ko'rindi.(Oybek)

Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga nima uchun nuqtali vergul qo'yilgan?

D) *vergul, vergul, nuqta*

- A) *Qo'shma gap qismlari bir paytda sodir bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalaganligi uchun.*
- B) *Qo'shma gap qismlari orasida sabab munosabati ifodalanganligi uchun.*
- C) *Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganligi uchun.*
- D) Qo'shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo'limganligi uchun.**

49. Ruboiyni ichida o'qidi // yuzini tabassum qopladi.

Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) *vergul* B) *tire* C) *nuqtali vergul* D) *ikki nuqta*

Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga, o'xshatish munosabati ifodalanganda, tire qo'yiladi. Qaysi gaplarda ushbu qoida asosida tire qo'yilgan?

1) Yaxshi o'g'il — el obro'si, yaxshi qiz — uy obro'si. 2) Otalar so'zi — aqlning ko'zi. 3) Vaqting ketdi — baxting ketdi. 4) Rejasiz ish — qolipsiz g'isht. 5) Suv keldi — nur keldi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5 **B) 3, 5** C) 2, 3, 4, 5 D) 2,4,5

50. Turnalar arg'imchog'i g'ira-shira osmon ortiga // bulutlar bag'riga singiydi.

Ushbu gapda // belgisi o'rniда qanday tinish belgisi qo'llanadi?

- A) *vergul*
B) tire
C) *ikki nuqta*
D) *hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi*

51. Mening bilishimcha, Qalandarov toshqin suv tegirmonni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham mumkin. (A.Qahhor)

Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yilishi kerak?

- A) *vergul* **B) ikki nuqta** C) *nuqtali vergul* D) *tire*

52. Odam bolasi borki u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi butun taqdirini tarjimayi holini orzu-umidlarini va nihoyat olamni shu rang orqali ko'radi.

Ushbu gapda nechta vergul ishlatalishi lozim?

- A) 4 B) 5 **C) 6** D) 7

53. Ey inson, har bir so'zni o'ylab gapir tiling seni yo saodatmand etadi yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- D) *vergul, vergul, nuqta*

A) *ikki nuqta* B) *nuqtali vergul* C) *vergul* D) *tire*

54. Quyidagi gapda qanday tinish belgilari qo'yilishi kerak?

Sekin unga yaqin bordim bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da qadrdon

- A) *tire, vergul, undov belgisi*
- B) *ikki nuqta, vergul, undov belgisi***
- C) *nuqtali vergul, vergul, nuqta*
- D) *tire, vergul, nuqta*

55. Quyidagi gapda qanday tinish belgilari qo'yilishi kerak?

Halimaxonni ko'rdim sira o'zgarmabdi hamon o'sha - o'sha

- A) *vergul, ikki nuqta, nuqta***
- B) *tire, ikki nuqta, undov belgisi*
- C) *tire, nuqtali vergul, nuqta*

56. Quyidagi gapda nechta vergul qo'llanishi kerak? Bog'dan chiqish uchun bir necha odim yurgach ishkom ichida suyanib turgan qizga ko'zi tushdi uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi ketmonga tikilib qadamini tezlatdi.

- A) *1 ta*
- B) *3 ta*
- C) *2 ta***
- D) *4 ta*

57. Men u yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim // kuzgi bug'doyning boshqlari shira olayotgan vaqtida ola bulut paydo bo'lib, boshqlar kuyib, qovjirab ketdi. (S.Ahmad). Ushbu gapda // belgisi o'rnidida qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) *vergul*
- B) *tire*
- C) *ikki nuqta***
- D) *nuqtali vergul*

58. O'zim injerman O'zbekistonning, sizning yurtingizning ta'rifini eshitganman. Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday tinish belgisi ishlatiladi, nima uchun?

- A) *ikki nuqta; izohlash munosabati bo'lgani uchun*
- B) *nuqtali vergul; mazmunan unchalik yaqin bo'limgani uchun***
- C) *tire; zidlik munosabati bo'lgani uchun*
- D) *vergul; bir paytda sodir bo'lgani uchun*

59. Orzum shul o'chmasin yongan chirog'ing.

Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday tinish belgisi ishlatiladi, nima uchun?

- A)nuqtali vergul; mazmunan uzoq bo'lgani uchun
- B)tire; sababini ifodalagani uchun
- C)ikki nuqta; izohlash munosabati ifodalangani uchun**
- D)vergul; voqea-hodisa ketma-ket ro'y bergani uchun

60 Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchisi yordamida bog'lansa, ular orasida qanday belgi ishlatiladi?

- A) hech qanday belgi ishlatilmaydi **B) vergul** C) ikki nuqta D) tire

61. Urush — quyon ovi emas.

Ushbu gapdag'i tirening ishlatilish sababini aniqlang.

- A)izohlash munosabati bo'lgani uchun
- B)ega ma'nosi ta'kidlangani uchun**
- C)bu gapda tire ishlatilmaydi, chunki ot kesim tarkibida bog'lama bor
- D)o'xshatish munosabati ifodalangani uchun

62. Bu — sen uchun katta sinovdir.

Ushbu gapdag'i tirening ishlatilish sababini aniqlang.

- A)ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangani uchun**
- B)izohlash munosabati ifodalangani uchun
- C)bu gapda tire ishlatilmaydi, chunki ot kesim tarkibida bog'lama bor
- D)shart munosabati ifodalangani uchun

63. Shubha yo'qki inson qaysi millat dinga qaysi xalq-elatga mansub bo'lmasin u avvalambor tabiat farzandidir. (I.Karimov)

Berilgan gapda nechta vergul qo'yilishi kerak?

- A) 4ta B) 7 ta **C) 6 ta** D) 5 ta

64. Qaysi qatordagi gapda paronimlarning qo`llanishi bilan bog`liq uslubiy xato mavjud?

- A) Majlisda kamchiliklar birma-bir sanalib, ularni tezda bartaraf etish kerakligi qayt etib o`tildi.
- B) *Ot chopsa, gumburlar tog`ning darasi.*
- C) *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.*
- D) *Butun qishloq ahli hasharga chiqdi.*